




TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RESPUBLIKA OAK JURNALI



2026, 3-SON

ISSN 2181-4201

<https://etjournal.buxdpi.uz>



BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 3

BUXORO – 2026

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHA, TARKIBIY KOMPONENTLAR VA MEZONLAR

Kamolova Mashhura Otabek qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

kamolovamashhura55@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentlik tushunchasi, uning tarkibiy komponentlari va shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari ilmiy – nazariy jihatdan tahlil qilingan. Lingvistik kompetentlikning fonetik – fonologik, leksik – semantik, Grammatik va stilistik komponentlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu kompetentlikning pedagogik faoliyatdagi o‘rni asoslab berilgan. Maqolada lingvistik kompetentlikni baholashning 3 darajali (yuqori, o‘rta, past) mezonlar tizimi taklif etilgan. Olingan natijalar bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: lingvistik kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, kommunikativ kompetentlik, ta’lim texnologiyalari, baholash mezonlari, til tizimi, nutq madaniyati, kasbiy – pedagogik kompetentlik.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ: ПОНЯТИЕ, СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ И КРИТЕРИИ

Камолова Маишхура Отабек кизи,

Базовый докторант Бухарского государственного педагогического института

kamolovamashhura55@gmail.com

Аннотация. В данной статье проведён научно – теоретический анализ понятия лингвистической компетентности будущих учителей, её структурных компонентов и критериев определения уровня сформированности. Раскрыты фонетико – фонологический, лексико – семантический, грамматический и стилистический компоненты лингвистической компетентности, а также обоснована её роль в педагогической деятельности. В статье предложена трёхуровневая (высокий, средний, низкий) система критериев оценки лингвистической компетентности. Полученные результаты способствуют повышению качества подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: лингвистическая компетентность, будущий учитель, коммуникативная компетентность, образовательные технологии, критерии оценки, языковая система, культура речи, профессионально – педагогическая компетентность.

LINGUISTIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS: CONCEPT, STRUCTURAL COMPONENTS AND CRITERIA

Kamolova Mashhura Otabek qizi,

Basic doctoral student of Bukhara State Pedagogical Institute

kamolovamashhura55@gmail.com

Abstract. This article presents scientific and theoretical analysis of the concept of linguistic competence of future teachers, its structural components and the criteria for determining its level of development. The phonetic – phonological, lexical – semantic, grammatical and stylistic components of linguistic competence are examined and the role of this competence in pedagogical activity is substantiated. The article proposes a three – level system (high, medium, low) of criteria for assessing linguistic competence. The findings contribute to improving the quality of training future teachers.

Keywords: linguistic competence, future teacher, communicative competence, educational technologies, assessment criteria, language system, speech culture, professional – pedagogical competence.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’lim sifatini tubdan yaxshilash, yuqori malakali, zamon talablariga javob bera oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli ta’lim islohotlari, jumladan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, Maktabgacha va Maktab ta’limi sohasida davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari, shuningdek, pedagogik ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan me’yoriy – huquqiy hujjatlar bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy – pedagogik kompetentligini yuqori cho’qqilarda rivojlantirishda muhim vazifa sifatida belgilangan.

Pedagogik faoliyatning mazmun – mohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri uning til va nutq madaniyatidir. Til – nafaqat fikr almashish vositasi, balki ta’lim – tarbiya jarayonining asosiy quroli, bilim uzatish va shaxsni shakllantirishning ajralmas vositasi hisoblanadi. O’qituvchi o’z faoliyatida fanni o’qitish bilan birga, o’quvchilarga nutq madaniyati, to’g’ri so’zlashish odobi va til me’yorlarini yoritib boruvchi asosiy shaxs hisoblanadi.

Lingvistik kompetentlik tushunchasi zamonaviy pedagogika va lingvodidaktika fanida murakkab, ko’p qirrali hodisa sifatida talqin etiladi. U shaxning til tizimini – fonetika, leksika, grammatika, stilistika qonun – qoidalarini – bilishi, ushbu bilimlarni nutqiy faoliyatda to’g’ri va izchil qo’llay olish qobiliyati bilan bog’liq murakkab kompetentlikdir. Bo’lajak o’qituvchi bu kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi, chunki pedagogning nutqi va til bilimi nafaqat shaxsiy kommunikatsiya vositasi, balki kasbiy faoliyat quroli, ta’lim sifatini belgilovchi mezon vazifasini ham bajaradi.

Shunga qaramay, oliy pedagogik ta’lim amaliyotida lingvistik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida hali ham bir qator dolzarb muammolar mavjuddir. Birinchidan, lingvistik kompetentlikning tarkibiy komponentlari va uni shakllanganlik darajalari bo’yicha aniq, yagona tasnif mavjud emas. Ikkinchidan, ta’lim amaliyotida bu kompetentlikni rivojlantirishga yo’naltirilgan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan tizimli, maqsadli foydalanish darajasi yetarli emas. Uchinchidan, talabalarning nazariy bilimlari va amaliy nutq ko’nikmalari o’rtasida sezilarli uzilish kuzatiladi. Bu esa bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy faoliyatiga to’liq tayyor bo’lib chiqishiga to’sqinlik qiladi. To’rtinchidan, lingvistik kompetentlikni baholash va diagnostika qilishning ilmiy asoslangan, amaliyotga moslashtirilgan mezonlar tizimi to’liq ishlab chiqilmagan.

Yuqorida sanab o’tilgan muammolar mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi va bo’lajak o’qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish masalasini chuqur ilmiy – nazariy va amaliy jihatdan o’rganishni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – bo’lajak o’qituvchilarning lingvistik kompetentligi tushunchasini ilmiy – nazariy jihatdan tahlil qilish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda ushbu kompetentlikning shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Lingvistik kompetentlik tushunchasining mohiyatini ochib berish;
- Uning tarkibiy komponentlarini tasniflash va tavsiflash;
- Bo’lajak o’qituvchi shaxsida bu kompetentlikning o’ziga xos xususiyatnlari ochib

berish;

- Lingvistik kompetentlikni baholash mezonlari va darajalarini ishlab chiqish.

Mazkur maqolada lingvistik kompetentlik tushunchasi, tarkibiy komponentlari va mezonlarini rivojlantirishning maqsad, vazifalari va tamoyillari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda uning ta’lim jarayonidagi o’rni va ahamiyati ilmiy – nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Lingvistik kompetentlik muammosi jahon tilshunosligi va lingvodidaktikasida chuqur ilmiy – nazariy asosga ega. Bu sohasining nazariy poydevorini yaratgan amerikalik tilshunos N.Chomsky hisoblanadi. U lingvistik kompetentlik tushunchasini ona tili sohibining tizimi haqidagi ongsiz, ichki bilimi sifatida ta’riflab, uni real nutqiy faoliyat – performance (ijro)dan farqlagan. Chomskyning fikricha, kompetentlik bu – til haqida bizning bilganlarimiz bo’lib, biz uni bilishimizni amalda qo’llashdir. Bu g’oya lingvistik kompetentlik nazariy mohiyatini, ya’ni shaxsning til tizimi (fonetika, leksika, grammatika) haqidagi yashirin bilimni tushinishda asosiy nazariy tayanch nuqta bo’lib xizmat qiladi.

Lekin Chomskyning kompetentlik nazariyasi faqat Grammatik bilimga qaratilgani uchun amerikalik sotsiolingvist D.Hymes tomonidan tanqid qilindi va rivojlantirildi. Hymes 1966 – yilda “kommunikativ kompetentlik” atamasini kiritib, bu orqali nutqiy vositalardan real ijtimoiy vaziyatlarda samarali foydalana olish qobiliyatini nazarda tutdi. Uning ta’kidlashicha, shaxning haqiqiy kompetentligi nafaqat Grammatik qoidalarni bilish, balki muloqotda nima ijtimoiy jihatdan o’rinli, maqsadga muvofiq va amalda qo’llanishi mumkinligini tushunishni ham talab qiladi. Hymesning qarashlari lingvistik kompetentlikni faqat til bilimi sifatida emas, balki uni nutqiy kommunikativ vaziyatga to’g’ri qo’llay olish ko’nikmasi sifatida ham talqin qilish zarurligini ko’rsatadi. Bu esa, bo’lajak o’qituvchi shaxsida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, pedagog nutqi doimo aniq ijtimoiy – pedagogik kontekstda namoyon bo’ladi.

Hymesning kommunikativ kompetentlik nazariyasi keyinchalik Yevropa tillarni o’qitish tizimida ham o’z aksini topdi. Xususan, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages – Tillarni o’qitish bo’yicha umumyevropa kompetensiyalari) hujjatida bir necha komponentlarga – lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetentliklarga bo’lib o’rganiladi. CEFR doirasida lingvistik kompetentlik leksik, grammatik, semantik, fonologik, orfografik va orfoepik komponentlarni o’z ichiga olgan holda, til bilimni aniq darajalar (A1dan C2gacha) bo’yicha tasniflash imkonini beradi. Ushbu yondashuv mazkur tadqiqotda lingvistik kompetentlikni bosqichma – bosqich, obyektiv mezonlar asosida baholash tizimini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

Lingvistik kompetentlik muammosi tilshunoslik va pedagogika fanlarida turli jihatdan o’rganilgan bo’lib, mazkur tadqiqot doirasida bir qator mahalliy olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega.

Atoqli o’zbek tilshunosi N.Mahmudov o’z tadqiqotlarida o’zbek tilining nutq madaniyati va uslubiyati masalalariga katta e’tibor qaratgan. Olimning fikricha, til me’yorlarini puxta egallash va nutqda uslubiy jihatdan to’g’ri, ifodali so’zlay olish nafaqat umumiy savodxonlik, balki uslubshunoslikka oid qarashlari bo’lajak o’qituvchining lingvistik kompetentligi tarkibidagi stilistik komponentni nazariy jihatdan asoslashda muhim manba bo’lib hisoblanadi. Chunki, o’qituvchi nutqining uslubiy to’g’riligi va ifodaliligi uning pedagogik mahoratining ko’rsatkichlaridan biridir.

Sh.Rahmatullayev o'zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi sohasida chuqur tadqiqotlar olib brogan. So'z boyligi, uning semantik xususiyatlari va frazeologik birliklarning nutqdagi o'rni masalalarini ilmiy asoslagan. Uning leksikologik tadqiqotlari lingvistik kompetentlikning leksik – semantik komponentini, ya'ni bo'lajak o'qituvchining so'z boyligi, so'zlarni o'z o'rnida ma'noniy jihatdan to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini nazariy jihatdan tushunishga muhim asos bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi masalasi esa M.M.Ergashov tadqiqotlaridan ham o'rganilgan. Olim o'z ishlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy – pedagogik kompetentligini, jumladan lingvistik kompetentligini shakllantirish jarayoning o'ziga xos xususiyatlarini, bu jarayonda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilgan. M.M.Ergashovning tadqiqotlari mazkur ishning amaliy – pedagogik asosini tashkil etadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, N.Mahmudovning nutq madaniyati va uslubiyatga oid qarashlari, Sh.Rahmatullayevning leksikologik – frazeologik tadqiqotlari hamda M.M.Ergashovning bo'lajak o'qituvchilar kompetentligiga oid ishlari birgalikda lingvistik kompetentlikning ko'p qirrali tabiatini – uning stilistik, kasbiy – pedagogik jihatlarini yaxlit holda yoritish imkonini beradi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchining lingvistik kompetentligini tizimli tarzda – nazariy bilim, amaliy ko'nikma va baholash mezonlari birligida o'rganadigan tadqiqot hali amalga oshirilmagan. Shunday qilib, mazkur tadqiqotlarda lingvistik kompetentlikning barcha komponentlarini o'z ichiga olgan yaxlit tizimli yondashuv va baholashning aniq mezonlari masalasi alohida, chuqur tadqiqot obyekti sifatida to'liq o'rganilmagan. Bu esa mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari masalasi nazariy – tahliliy yondashuv asosida o'rib chiqildi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy – tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

1. Tahlil va sintez metodi. Lingvistik kompetentlik muammosiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar (monografiya, dissertatsiya, ilmiy maqolalar) chuqur tahlil qilindi va turli nazariy yondashuvlar umumlashtirilib, yaxlit nazariy xulosalar shakllantirildi.

2. Qiyosiy – tipologik metod. N.Chomskyning lingvistik kompetentlik nazariyasi, D.Hymesning kommunikativ kompetentlik konsepsiyasi hamda CEFR doirasidagi yondashuvlar o'zaro qiyoslandi. Mahalliy olimlar N.Mahmudov, Sh.Rahmatullayev, M.M.Ergashov) tadqiqotlari xorijiy olimlarning nazariyalari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

3. Tasniflash metodi. Lingvistik kompetentlikning tarkibiy komponentlari (fonetik – fonologik, leksik – semantik, grammatik, stilistik, nutq faoliyati, kasbiy – pedagogik) ilmiy asosda tasniflandi va tizimlashtirildi.

4. Umumlashtirish va modellashtirish. Tahlil qilingan nazariy manbalar asosida bo'lajak o'qituvchining lingvistik kompetentligini baholash mezonlari va darajalari (yuqori, o'rta, past) ishlab chiqildi.

5. Induktiv – deduktiv metod. Xususiy ilmiy manbalardagi alohida fikr va g'oyalardan umumiy nazariy xulosalarga (induksiya), shuningdek umumiy nazariy qoidalardan bo'lajak o'qituvchi faoliyatiga xos xususiy xulosalarga (deduksiya) o'tish orqali tadqiqot natijalari shakllantirildi.

Tadqiqotning nazariy – metodologik asosini N.Chomskyning lingvistik kompetentlik nazariyasi, D.Hymesning kommunikativ kompetentlik konsepsiyasi, Yevropa Kengashining CEFR hujjati, shuningdek, N.Mahmudov, Sh.Rahmatullayev,

M.M.Ergashovning tilshunoslik va pedagogika sohasidagi ilmiy ishlari tashkil etadi.

Muhokama. Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, lingvistik kompetentlikni faqat til tizimi haqidagi nazariy bilim sifatida tushunish yetarli emas. N.Chomskyning kompetentlik = performance" dixotomiyasi bilan D.Hymesning kommunikativ – funksional yondashuvini bo'lajak o'qituvchi shaxsi misolida qiyoslash shuni ko'rsatadiki, aynan Hymes ilgari surgan g'oya – bilimni ijtimoiy - pedagogik kontekstda o'rinli qo'llash zarurati – pedagog kasbi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'qituvchining grammatik jihatdan to'g'ri, biroq pedagogik vaziyatga mos kelmaydigan nutqi kasbiy maqsadga xizmat qilmaydi.

Tarkibiy komponentlar o'rtasidagi ierarxik bog'liqlikka oid natija mahalliy olimlar tadqiqotlari bilan o'zaro mos kelishi muhim ahamiyatga ega. N.Mahmudovning nutq madaniyati va uslubiyatga oid, Sh.Rahmatullayevning leksikologik - frazeologik ishlari aynan “bazaviy” komponentlari chuqur yoritilgan bo'lsa, M.M.Ergashovning tadqiqotlari kasbiy – pedagogik qatlamga qaratilgan. Ammo bu ikki qatlam o'rtasidagi “ko'prik” – ya'ni sof til bilimining qanday mexanizmlar orqali pedagogik mahoratga aylanishi – mavjud adabiyotlarda yetarlicha izohlanmagan. aynan shu nazariy bo'shliq amaliyotda kuzatiladigan muammoni, ya'ni talabalarning grammatik – leksik bilimi yuqori bo'lsa – da, buni real darsda samarali qo'llay olmasligini izohlashga yordam beradi.

CEFR tizimini tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatadiki, ushbu xalqaro tizimni o'zbek tilshunosligi va pedagogik ta'lim sharoitiga to'g'ridan to'g'ri ko'chirib bo'lmaydi. Bu holatda esa, bo'lajak o'qituvchining kasbiy xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ishlab chiqish zarur. Shu sababli mazkur tadqiqotda taklif etilgan uch darajali mezonlar tizimi CEFRning lingvistik va pragmatik kompetentlik tushunchalaridan foydalansansa-da, unga kasbiy – pedagogik o'lchovni qo'shish bilan farq qiladi.

Umuman olganda, muhokama natijalari bo'lajak o'qituvchilarning lingvistik kompetentligini samarali rivojlantirish uchun an'anaviy til o'qitish usullari bilan cheklanib qolmasdan, interaktiv, loyihaviy va raqamli ta'lim texnologiyalarinitizimli tarzda qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Bu holat esa, nazariy bilim va amaliy ko'nikma o'rtasidagi uzilishini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar. O'tkazilgan nazariy – tahliliy tadqiqot natijasida quyidagi asosiy ilmiy natijalarga erishildi:

1. Bo'lajak o'qituvchilarning lingvistik kompetentligi murakkab, ko'p qatlamli tuzilishga ega ekanligi aniqlandi va uning oltita asosiy tarkibiy komponenti – fonetik-fonologik, leksik-semantik, grammatik, stilistik, nutq faoliyati va kasbiy – pedagogik komponentlar – ilmiy asosda tasniflandi.

2. N.Chomsky, D.Hymes va CEFR yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida lingvistik kompetentlikning ikki o'lchamli mohiyati – nazariy bilim (kompetentlik) va uni amaliy qo'llash qobiliyati (performance/kommunikativ jihat) aniqlandi.

3. Lingvistik kompetentlikning tarkibiy komponentlari o'rtasida ierarxik bog'liqlik mavjudligi aniqlandi: fonetik – fonologik, leksik – semantik, grammatik, stilistik komponentlar bazaviy qatlamni, nutq faoliyati va kasbiy – pedagogik komponentlar esa ularning amaliy va kasbga yo'naltirilgan integratsiyasini tashkil etadi.

4. Mahalliy olimlar (N.Mahmudov, Sh.Rahmatullayev, M.M.Ergashov) tadqiqotlari bilan xorijiy nazariyalarni qiyoslash orqali bazaviy til komponentlari o'rtasidagi bog'liqlik mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilmagani aniqlandi.

5. CEFRni darajalashtirish tizimi asosida, ammo bo'lajak o'qituvchining kasbiy

xususiyatlarini hisobga olgan holda, lingvistik kompetentlikni baholashning uch darajali (yuqori, oʻrta, past) mezonlar tizimi ishlab chiqildi.

Xulosa. Oʻtkazilgan tadqiqot natijasida boʻlajak oʻqituvchilarning lingvistik kompetentligi murakkab, oltita tarkibiy komponentdan (fonetik – fonologik, leksik – semantik, grammatik, stilistik, nutq faoliyati, kasbiy – pedagogik) iborat yaxlit tizim ekanligi asoslandi.

Mahalliy va xorijiy manbalarni tahlil qilish asosida til bilimi bilan kasbiy mahorat oʻrtasidagi bogʻliqlik mexanizmlari hali yetarlicha oʻrganilmaganligi aniqlandi. Bu kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yoʻnalishdir. Shuningdek, ishlab chiqilgan uch darajali baholash mezonlari tizimi lingvistik kompetentlikni diagnostika qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yakunda taʼkidlash joizki, boʻlajak oʻqituvchilarning lingvistik kompetentligini samarali rivojlantirish interaktiv va raqamli taʼlim texnologiyalarini tizimli joriy etishni talab etadi – bu nazariy bilim bilan amaliy koʻnikma oʻrtasidagi uzilishni bartaraf etib, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonuni. – Toshkent 2020.
2. Mahmudov N. Oʻqituvchi nutq madaniyati. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 2007. – 128b.
3. M.M.Ergashov. “Boʻlajak oʻqituvchilarda interaktiv oʻyinlar orqali til va ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirish” – development os science journal. 2025 dekabr /12
4. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing .
5. Chomsky, N. (1965). Aspects of the theory of syntax. Cambridge, MA:MIT Press,1965. – 251 p.
6. Hymes.D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds) – 269 – 293 p.

RIVOJLANTIRISH OMILLARI <i>Berdiyeva Umida G'oyibberdiyevna</i>	
VIRTUAL MASHHURLIK SINDIROMI VA OILAVIY ROLLARNING DEVALVATSIYASI <i>Axmedova Surayyo Sunnat qizi</i>	94
O'SMIRLARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA VA KASB TANLASH MOTIVATSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Xudoyberdiyeva Yulduz Sharif qizi, Ilmiy rahbar: Ostonov Jasur Shopurjonovich</i>	99
YUQORI SINIF CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA JISMONIY SIFATLARNING O'RNI <i>Nurulloev Laziz Latipovich</i>	108
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHA, TARKIBIY KOMPONENTLAR VA MEZONLAR <i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	116
YOSHLARNI GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Raximova Aziza Kamolovna, Ilmiy rahbar: Ostonov Jasur Shopurjonovich,</i>	122
GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH <i>Saidova Mahbuba Ayubovna</i>	131
MAKTAB O'QUVCHILARIDA STRESS VA DEPRESSIYA HOLATLARINI OLDINI OLISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI <i>Baxshullayeva Nilufar Olim qiz</i>	139
НАЧИМОСТЬ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ СОЗДАНИЯ ТЕКСТА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ <i>Хаитова Нодира Бафоевна</i>	144
“INSON –GENERATIV SUN'IIY INTELLEKT” TIZIMIDAGI MULOQOTNING LINGVISTIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI (RUS TILIDAGI KO'RSATMALARGA ASOSLANGAN) <i>Atamurodova Sitara Jalilovna</i>	153
BOSHLANG'ICH MATEMATIKA TA'LIMIDA ARIFMETIK AMALLARNI O'QITISHDA METOLOGIK MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Ikromova Sevinch Elniyoz qizi</i>	161
JADID MAKTABLARINING PEDAGOGIK KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, METOD VA TEXNOLOGIYALARI <i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	167
CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA VATANGA SADOQAT TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR <i>Boboyev A'lonirzo To'lamirzayevich</i>	174
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA TANQIDIY FIKRLASH ASOSIDA O'QUVCHILARNING META-PREDMET KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI <i>Norkulova Dilorom Oybekovna</i>	181
Filologiya fanlari	
BUXOROLIK SHOIRALAR IJODIDA DENDRAR OBRAZLARINING BADIY-ESTETIK TALQINLARI <i>Rustamova Gavhar Bahron qizi</i>	191